



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

PREZIDENT SAYLOVINI O'TKAZUVCHI SAYLOV OKRUGLARI TUZILDI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining shu yil 13-maydagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi saylov okruglari tuzildi.

Jumladan, Samarqand viloyati chegarasi doirasida 7-Samarqand saylov okrugi tashkil etildi.

2023-yil 12-may holatiga ko'ra,

saylov jarayonini boshqarish axborot tizimida okrug bo'yicha saylovchilar soni 2 million 123 ming 554 nafar (saylovga tayyorgarlik ko'rish jarayonida saylovchilar soniga aniqlik kiritib boriladi).

Okrug saylov komissiyasi Samarqand shahar Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 63-uy (Yoshlar markazi binosi)da joylashadi.

16-18-may kunlari Samarqandda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Bu yilgi tadbirning asosiy mavzusi "Iqtisodiy chidamlilik va barqarorlikka investitsiyalar kiritish" deb nomlandi. Tadbir 73 davlatdan 2000 dan ortiq mehmon, jumladan, xorijiy hukumatlar vakillari, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro moliya institutlari va banklari rahbarlari, iqtisodiyot, investitsiyalar, moliya va texnologiyalar sohasidagi ekspertlar, shuningdek, yetakchi xorijiy OAV vakillari ishtirok etishi kutilmoqda.

YTTBning 32-YILLIK YIG'ILISHIGA SAMARQAND MEZBONLIK QILADI

Iqtisodiyot barqarorligiga investitsiyalar kiritish masalalari tadbirning asosiy mavzusi bo'ladi. Yig'ilish davomida bankka a'zo mamlakatlar duch kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish mavzulariga bag'ishlangan panel munozaralari o'tkazilishi ham rejalashtirilgan.

Ushbu tadbir YTTBga o'tgan yil davomida erishgan yutuqlarini tahlil qilish va rejalarni tuzish imkoniyatini beradi. Yig'ilish asosiy tadbirlaridan biri "O'zbekistonning investitsiyaviy istiqbollari to'g'risida"gi sessiya bo'ladi. Unda mamlakat iqtisodiyotining kutilayotgan o'sish sur'atlari va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Tadbirning uch kunlik kun tartibidan ekspertlar ishtirokidagi turli mavzularda, jumladan, mintaqalar va alohida mamlakatlarga bag'ishlangan bir qator panel munozaralari ham o'rin olgan.

Ular qatoridan xalqaro savdo munosabatlarini



batlari, energiya xavfsizligi, qayta tiklanadigan energiya

manbalari, kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati, rivojlanayotgan bozorlarda raqamlashtirish jarayonlari, YTTB "Yashil shaharlar" dasturi, YTTBning "Mintaqaviy iqtisodiy istiqbollari" mavzusidagi asosiy makroiqtisodiy tadqiqoti va boshqalar o'rin olgan.

Yig'ilishda xalqaro ishbilarmon doiralar vakillari ishtirokida biznes-forum bo'lib o'tadi. Unda makroiqtisodiy vaziyat, qayta tiklanadigan energiya man-

balarini rivojlantirishda xususiy sektor va davlatning roli, hududlararo aloqalar, iqtisodiy integratsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamlashtirish va boshqa masalalar yuzasidan ekspert muhokamalari o'tkaziladi.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston YTTBga 1992-yil 30-aprelda a'zo bo'lgan. Respublika bankning umumiy qiymati 44,1 million yevroga teng bo'lgan 4200 dona aksiyasiga egalik qiladi. Bankning vakolatxonasi Toshkent shahrida 1993-yil may oyida, Andijonda 2019-yil oktabrda, Urganchda 2021-yil iyun oyida ochilgan. Hozirda Qarshi shahrida ham bank ofisini ochish rejalashtirilgan.

Bank O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlaganidan buyon iqtisodiyotning turli tarmoqlarida 3,4 milliard yevrodan ortiq 100 ta loyiha va dasturni moliyalashtirishni ma'qulladi (893 million yevrolik 7 ta loyiha ishlab chiqish jarayonida). Shuningdek, O'zbekiston MDH davlatlari orasida YTTB eng ko'p sarmoya kiritadigan davlat hisoblanadi.

YTTB loyihalari kichik biznes, moliya sektori, transport infratuzilmasi va energetikani rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bank tomonidan ajratilgan mablag'larning asosiy miqdori to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga to'g'ri keladi.

Bunday darajadagi tadbirning o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro investitsiya maydonidagi obro'sini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, ishbilarmon doiralarni vakillariga O'zbekistonning iqtisodiy, sarmoyaviy va sanoat sohasidagi salohiyati va mamlakatimizning boy madaniyati bilan tanishish imkonini berishi kutilmoqda.

NEGA ODAMLAR DARDINI HOKIMGA AYTISHNI ISTAYDI?

Sayyor qabuldan so'ng



Kasbim taqozosi bilan ikki marta viloyat hokimining sayyor qabulida qatnashib, mana shu savolga to'liq javob oldim, desam ham bo'ladi. Shu bilan birga, qarshimda qator yangi savollar paydo bo'ldi. Avvalo, murojaatlar mazmuni haqida.

13-may kuni Samarqand shahridagi Vatanparvar bog'ida o'tkazilgan bu safariga qabulga kelganlar ham oz emas edi — 1400 dan ziyod murojaat tinglandi. Qabulda 150 ga yaqin mutasaddilar ham ishtirok

etdi. Eng ko'p murojaatlar imtiyozli kreditlar ajratish, yer uchastkasi olish, moddiy yordam, uy-joy, yo'l qurilishi, kommunal soha (ko'proq elektr energiyasi ta'minoti), kredit, davolanish bilan bog'liq bo'ldi.

Kommunal, yo'l qurilishi kabi masalalarning hokimgacha yetib kelishi tabiiy. Chunki bu katta mablag' evaziga bitadigan kamchiliklar, qolaversa, uzoq yillar davomida tizimda muammolar to'planib qolgan.

Quyidagi raqamga e'tibor bering: joriy yilda tashabbusli budjet portalidagi "Mening yo'lim" loyihasida respublika bo'yicha kelib tushgan murojaatlar soni

9200 dan oshgan va salkam ikki million kishi yo'llar ta'miri bo'yicha ovoz bergan. Avval o'tkazilgan tashabbusli budjet loyihasida g'olib bo'lgan 1419 loyihadan 381 tasi aynan ichki yo'llar bo'yicha edi. Xulosa qilish mumkinki, hozirda eng muammoli masala — yo'l. Sayyor qabulda yo'l bilan bog'liq barcha murojaatlar ijrobiy hal etish maqsadida ro'yxatga olindi.

Aftidan, Samarqand shahrida hali ham noqonuniy qurilishlar barham topmagan. Ushbu masalada viloyat hokimiga shikoyat qilganlarning deyarli barchasi Samarqand shahridan.

(Davomi 2-sahifada) >>>

SAMARQANDGA BOBSAM HAR SAFAR...

Shukuh



Samarqandga borsam har safar, Kutib olar qutlug' zafarlar. Kutib olar ko'rkam, muzaffar, Yashnayotgan qishloq, shaharlar.

El shoiri Muhammad Yusuf safimizda bo'lganida, iftixorga to'lib, hech shubhasiz, bundan-da ehtirosli tashbehlarida ifodalagan bo'lar edi hayajonli taassurotlarini.

Har safar Samarqand zaminiga qadam qo'yganda bir emas, o'n emas, yuzlab bir-biridan muhtasham go'zalliklarning guvohi bo'lgan: ko'chalar, uylar, korxonalar, bog'lar, xiyobonlar... va, va, hammasidan quvonchlisi, odamlarning yuz-ko'zlaridagi mahvash sevinchlar, shijoatlar, o'ziga, ertasiga bo'lgan qat'iy ishonch, yashash ishtiyoqi, hayotga muhabbat sho'ralariga guvoh bo'layotgan shoir boshqacha yozmasdi, yozolmasdi ham. Ich-ichidan qaynab-toshib kelayotgan g'ururdan Zarafshonday jo'shib-hayqirib she'rlar aytganda minglab shodum ovozlarga ko'milib ketardi shoirning mohitob hayratlari. Zotan, so'nggi yillarda Samarqand zaminidagi shohona yuksalishlarni ko'rganda, ko'ksing Urgut tog'lariga qadar yuksalmasligi mumkinmi, axir!

Har ko'katning o'z suyan tuprog'i bor. Har toycha o'zi suv ichgan bulog'ini maqtaydi. Lekin men samarqandlik bo'lganim uchungina ardoqli qo'rg'onimga ziyoda ta'rif berayotganim yo'q. Zero, Samarqand ortiqcha maqtovlarga muhtoj ham emas. Men, esi kirganidan buyon, sodir bo'layotgan yangiliklarni baholi qudrat kuzatib kelayotganlarning biri sifatida dildagilarni tilga olyapman, xolos. "Toy-toy" bo'lib, esni

taniy boshlaganimga esa, mana, Xudoyim-ga shukurlar bo'lsin, yetmish yildan oshdi. Sho'ro zamon, mustaqillik, undan keyingi yillar - hammasi kattakon bir kitob kabi turibdi ko'z oldimda. Bu kitobni varaqlagunday bo'lsam, birda etim uvishadi, birda munavvar quvonchlarga, muattar o'yarlarga cho'maman. Eslaganda, et uvishadigan bolalik, muzday suv-loyga botib tamaki ekishlar, so'fi azon aytmay ko'zlarni ishqab-ishqalab dashtga jo'nashlar, tuxum pishadigan yoz jazirasida eshaklarni motashtirib somon yanchishlar, tomchilar chakillab turgan zax sinfxonalarda yirtiq choponlarga burkanib darsda o'tirishlar... Mayli, u zamonlar olislarida qoldi, o'tgan ishga salovat, deylik. Lekin yaqin-yaqinlarda ham shunday ayanchli ko'rinishlar bor ediki, eslasang, eting uvishib, varaja qo'ziydi vujudingda. Masalan, yo'l azoblari.

E'tibor qiling, Toshkent - Termiz yo'lidan Urgut shaharchasigacha 15 kilometr yo'q, yo'q. Ammo Toshkentdan Samarqandgacha bir azob bo'lsa, mana shu 15 chaqirim - o'n emas, yuz emas, ming azob edi! Bir qarich tekis joy yo'q, to'rt taraf shudog, mashina tugul, traktorniyam "ichi tushib" ketardi "tuxum karobka" deyilmish bu ko'chadan o'tib olguncha. 20-30 yil emas, to'rt-besh yil avvalgi ahvol edi bu.

Endi-mi? Endi avtoavariyalar, qoidabuzarliklar ko'payib ketganidan bir necha joyga svetoforlar o'rnatilib, tezlikka cheklolvar belgilandi. Yo'l oynadek bo'lgach, haydovchi deganning zavqi toshib, gazni bosgisi kelaver-ar ekan-da!

(Davomi 4-sahifada) >>>

OB- HAVO



Bugun havo o'zgaruvchan bo'lib, tog'oldi va tog'li hududlarda qisqa muddatli yomg'ir yog'adi, momaqaldiroq bo'lishi mumkin. Harorat kechasi 15-20 daraja iliq, kunduzi 28-33 daraja issiq bo'ladi.

17-19-may kuntari vaqti-vaqti bilan yomg'ir yog'adi, ayrim joylarda kuchayadi. Harorat kechasi 10-18 darajagacha iliq, kunduzi 17-30 darajagacha issiq bo'ladi.

17-mayda shamol tezligi 23-25 metr soniyagacha yetadi, ba'zi tumanlarda chang-to'zon ko'tariladi.

Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.



Nega odamlar dardini hokimga aytishni istaydi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Masalan, shaharning O'zbekiston ko'chasida yashovchi Salomat Murtazoyeva ko'chadagi noqonuniy qurilishdan shikoyat qildi.

Viloyat rahbari holatga baho berish uchun mutasaddilar bilan o'sha joyning o'ziga borishini ma'lum qildi.

Yana bir guruh ayollar Vatanparvar mahallasi-da noqonuniy qurilishlar bor deb murojaat qilishdi. Aytishicha, ularning uylari yaqini va yo'l bo'yida 6 ta qurilish ketmoqda.

Sektor rahbarlari ushbu mahallada ayollar aytgan masalalarni o'rganadigan bo'ldi. Chunki gap faqat noqonuniy qurilishlar emas ekan. "Obod mahalla" dasturi bo'yicha amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlaridan ham ular norozi.

Bundan bir necha yil oldin tadbirkorlar buzilgan do'konlari uchun kompensatsiya olishi eng katta muammolardan biri edi. Yillar davomida tovon puli ololmay, sudlashib yurganlarning muammolarini o'rganib, matbuotga berganmiz. Keyinchalik bu bo'yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, tadbirkor roziligi olinmay va kompensatsiya berilmasdan binolar buzilmaydigan bo'ldi. Ammo ayrim hududlarda bunday holat davom etayotgan ekan: Kattaqo'rg'on tumanidan kelgan tadbirkor ayol bir nechta do'konni buzilgan, ammo 6 oydan beri kompensatsiya puli ololmaganidan shikoyat qildi. Holatni ijobiy hal qilish uchun tuman hokimligiga muddat belgilandi.

Ishtixon tumanidan kelgan ayolning murojaati ham e'tiborni tortdi: "20 yil muddatga kreditga olgan uyim allaqachon "to'kilib" bo'lgan. Sobiq "Qishloq-qurilishinvest" va hozirgi tuman hokimligidan judayam noroziman".

Mazkur murojaat bo'yicha ishchi guruh tuzilib, joyida batafsil o'rganib, xulosasi va shunga qarab baho beriladigan bo'ldi.

"Ko'zimni operatsiya qilish kerak", "Operatsiyaga pul zarur", "Farzandimni operatsiya qildirishga imkoniyatimiz yo'q" - bu kabi murojaatlarning barchasiga mutasaddilar biriktirilib, hal etish qat'iy nazoratga olindi.

Sayyor qabulni kuzatar ekanman, bir holat e'tiborimni tortdi: uzoqroqdan, to'planib turgan odamlar orasidan bir ayol otilib chiqib, tezlik bilan hokim tomonga intilardi. Ammo tartib saqlash uchunmi, ro'yxatdan o'tmagan uchunmi yoxud murojaati asossiz bo'lganidanmi, xullas, tartib posbonlari ayoli to'xtatishga harakat qildi. Hokim esa holatni ko'rib, mikrofonni qo'lga oldi va "Qo'yinglar, indamanglar, kelsin!" dedi.

Rad etilgan murojaatlar ham yo'q emas. "Sartaroshxona qurishim uchun subsidiya kerak" (bu turdagi subsidiya yo'q). "Devorim qulab tushgan, tiklab bering" (murojaatchining turmush o'rtog'i ishlaydi, farzandlari voyaga yetgan, o'zingiz bajaring), "Nogironlik guruhi olib bering" (buning aniq tartibi bor)...

Ochig'i, viloyat hokimiga "Menga birinchi guruh nogironligi olib bering", deya murojaat qiladiganlar oz emas ekan. Ikki soat ichida uch marta shunday holatga guvoh bo'ldik. Bunaqasini kutmagandim.

Birinchiidan, viloyat hokimi nogironlik belgilamaydi. Umuman, bu jarayon rahbarlarning buyrug'i bilan bo'ladigan ish emas.

Ikkinchiidan, "I guruh nogironligi kerak", deyotgan bu kishilar oyog'i bilan yurib keldi qabulga.

Tabiiyki, bu kabi murojaatlar rad etildi. Tegishli komissiya ko'rib chiqishi kerakligi aytili.

Masalaning yana bir tomoni bor. Nega fuqarolar bu masalada viloyatning birinchi rahbariga chiqiyapti? Nega ular aynan nogironlik belgilaydigan tegishli tashkilotlarga ishonmayapti? Bu tashkilotlarda o'tkaziladigan ko'rikda biror sun'iy to'siq bormi yoki odamlar orasida nogironlik olishga, aniqrog'i, uning imtiyozlariga qiziqish shunchalik yuqorimi? Holat o'rganilishi kerak, shekilli.

Urgut tumani Vatak mahallasidan kelgan ayol shunday so'zlar bilan murojaat qildi: "Ikki chaqalog'im bor, ukam nogiron, ajrashganman, ota-onam yo'q. Uy so'ramayman, pul so'ramayman, hovlimning to'rida devor yo'q, ayol kishiman, devor qilish juda zarur bo'lyapti, ammo o'zimning imkonim yo'q, mahalladan biror marta yordam olmadim, bir iloj qilib keldim oldingizga..."

Bizningcha, mazkur murojaat bo'yicha ortiqcha so'zga hojat yo'q, tez orada hokimlik vakillari ushbu manzilga boradigan va yordam beradigan bo'lishdi.

Bir murojaat shaxsan meni xavotirga soldi: "Medtexnikum bitiruvchisiman, turli ko'rik-tanlovlarda qatnashganman, masalan "Zavokat" intellektual o'yini viloyat bosqichiga chiqqanman, menga tavsiyanoma berilsa, test imtihonisiz tibbiyot oliygohiga o'qishga kirmoqchi edim".

Ochig'i, meditsina yo'nalishida imtihonsiz o'qishga kirish tarafdori emasman. Mazkur murojaatchining oldiga borib, so'radim: "Yosh ekansiz, ancha faol ko'rinasiz, testlarga tayyorgarlik ko'rsangiz bo'lmaydimi"? U esa oilali ekani va imtihonlarga tayyorlanish uchun imkoniyatini yo'qligini aytdi. Aytishicha, mahallasida o'zi tanlagan tibbiyot yo'nalishi bo'yicha kadr kerak. Xullas, niyat ezgu, ammo...

Keyingi murojaat: "Internetdan usta topib, uyimga mebel yasatgandim, pulni olib, chala qilib ketdi. Hamma joyga murojaat qildim. Oxiri sizga kelishga majbur bo'ldim".

To'g'ri, katta muammo emas, ammo masala shuki, ayolning hamma joyga qilgan murojaatlari natija bermagan. Holbuki, iste'molchilar huquqlarini himoya qiladigan tashkilotlar bor. Lekin ustaning "chala ishi" ham hokimgacha yetib keldi. Aftidan, qayerga murojaat qilgan bo'lsa ham uning shikoyatiga yetarli e'tibor berilmagan. Ana shunday murojaatlar oz emasligiga guvoh bo'ldik.

Aslida qabuldan olgan xulosalarimizdan biri ham shu bo'ldi. Hozirgi vaqtda aholi muammolari ming bir usulda - xonadonbay deysizmi, mahallabay deysizmi, ishlayib, o'rganilyapti. Ammo ayrim joylarda eng oddiy muammolar ham hal qilinmaganki, odamlar uzoq yo'l bosib, hokim qabuliga kelishmoqda. Fikrimizcha, endigi qabullarda bu kabi, joyida hal etsa bo'ladigan murojaatlarning hududiyliigi e'tibor qaratish, ayniqsa, ularning oldin ayni masala bo'yicha qayerlarga murojaat etgani va qay tariqa o'rganilganiga baho berish kerak. Shunda mahalliy organlarda ham murojaatlar bilan ishlashga e'tibor ko'proq bo'ladi.

Anvar MUSTAFOQULOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat), "Zarafshon" muxbirlari.

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishilmoqda. Bunda ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini, qishloqlar, ovul va mahallalarda jamoat tartibi saqlanishini, fuqarolar xavfsizligini, jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta'minlaydigan profilaktika inspektorlarining o'zni katta.

2021-yil 26-martda davlatimiz rahbarining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish cho-

ra-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi belgilan-

di. Maskanlar hududidagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi. Ular negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi ku-

INSONGA E'TIBOR: BUNGA DAVLAT MAS'UL, AMMO...

Albatta, avvalambor davlat. 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi bejiz emas. Bu siyosat davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida, keyingi yillarda qabul qilingan qonun va hujjatlarda yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. "E'tibor" so'zi rasmiy lug'atlarda "hurmat, izzat-ikrom, hisobga, nazarga olish, obro', nufuz" tarzida izohlangan. Binobarin, yangilangan Konstitutsiyamizda ham insonga e'tibor doirasida davlat faqat ijtimoiy sohaning o'zida quyi-dagi o'nta majburiyatni o'z zimmasiga olyapti:

- fuqarolar bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rish;

- maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

- bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlash;

- bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;

- fuqarolarning davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishini ta'minlash;

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishiga erishish;

- pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamlarning eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lmazligiga erishish;

- ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarning hayot sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishiga sharoit yaratish choralarini ko'rish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar oyoqtlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun sharoitlar yaratish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning ishgah joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashish.

Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham bor, bu bevosita biz, fuqarolarning ana shu siyosatni nechog'lik tushunishimizga va uni hayotimizda qay darajada qo'llashimizga ham bog'liq.

Binobarin, rivojlangan davlatlar tajribalari, xususan, Yaponiya, Singapur, AQSH, Germaniya kabi davlatlarda fuqarolarning ijtimoiy munosabatlari bizga bu borada ibrat bo'la oladi.

Biz insonga e'tibor modelini quyidagicha shakllantirishga harakat qildik.

Buni hurmatli mushtariylarga

quvvai hofizimiz darajasida tushuntirishga harakat qilamiz.

Birinchi galda, har bir inson o'ziga o'zi e'tibor qaratishi lozim. Men kimman, nimalar bilan shug'ullanishim kerak, hayotimni qanday qilsam, xor bo'lmay yashayman va jamiyatga, birovlariga qanday foydam tegadi, degan savolga har bir kishi o'zi javob topishga harakat qilishi kerak. Intilganga tole yor. Yotib boy bo'la olmasiz, yashashingizda ham mazmun bo'lmaydi.

Ikkinchiidan, har bir inson oilada ulg'aymoqda va yashamoqda. **Oilada bir-biriga e'tiborli bo'lib**, birortasiga ham befarq bo'lmasligi kerak. Be-

farqlik kayfiyati butunlay barham topishini oilada boshlash va shakllantirish kerak bo'ladi.

Birovga qaram bo'lmasdan yashash tarzini ham aynan oilada singdirish lozim. Oilada ota-ona farzandlariga, farzandlar ota-onalarga va ular bir-birlariga e'tiborli, ko'makdosh, mehrlil ulg'ayishi kerak. Shundaygina ko'zlan-gan maqsadga erishiladi.

Uchinchiidan, hamma insonlar mahallada yashaydi. Mahalladoshlar bir-birini yaxshi bilishadi. Bular ham bir-biriga befarq bo'lmasdan, agar yashash yo'lini bilmayotganlar bo'lsa, ularni jamoatchilik bilan to'g'ri yo'lga boshlab, e'tibor qilinisa, mahallada hamma o'ziga tinch bo'ladi. Hamma mahallada yashaydi.

To'rtinchiidan, nodavlat-notijorat tashkilotlari mahalla va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda har bir fuqaroga e'tiborni kuchaytirishi lozim. Bunda faqat nochor oilalar, zaif insonlarga emas, balki ilg'or insonlarga ham e'tibor qaratib, ularning tajribalarini ommalashtirish, muvaffaqiyatli sirini o'rganish, boshqalarga o'rgatish lozim.

Insonning intellektual salohiyati-

tini ishga tushirishda motivatsiyaning o'rni kattaligini unutmaslik lozim.

Beshinchiidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar unda faoliyat ko'rsatayotgan har bir kishining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolidan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq. Ilg'or xodimlardan foydalanib, ularni rag'batlantirish, tajribalarini ommalashtirish va nochor, yordamga muhtojlarga ham e'tibor qaratib, ularni ilg'orlar qatoriga olib chiqish choralarini ko'rish zarur.

Oltinchiidan, mahalliy hokimliklar aholiga nisbatan e'tiborli bo'lib, yurtimizda olib borilayotgan insonga e'tibor borasidagi davlat siyosatini odilona amalga oshirish uchun shu mahalliy hududga daxldor bo'lgan hamma insonlarni safarbar qilishi kerak bo'ladi.

Bunda rag'bat ham jazo ham odillik tamoyiliga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirishi lozim.

Yettinchiidan, davlat tomonidan ushbu siyosatni amalga oshirish uchun tegishli qarorlar, "yo'l xaritalari", chora-tadbirlar ishlab chiqib, har bir tadbirni amalga oshirish uchun mas'ul-lar, amalga oshirish vaqti, bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari ham ishlab chiqilgan bo'lishi shart.

Jamiyatimizda birovga yaxshilik qilmagan, birovning ko'nglini qoldirgan yoki o'z qadr-qimmatini bilmagan kimsalarga nisbatan doimo salbiy fikrlar bildirilgan. Demak, har bir fuqaroning asosiy vazifasi davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va imtiyozlarni to'g'ri anglab, ulardan foydalanib, o'zaro munosabatlarda bir-birimizga hurmatda bo'lishga harakat qilishdir.

Mamayunus PARDAYEV, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yil 1-aprel holatiga viloyatda 522 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,2 barobarga oshdi.

Maxsus bog'chada kimlar tarbiyalanadi?

Davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan aqliy, ehsitish, psixik, nutqida, ko'rishida va tayanch-harakatlanish a'zolari rivojlanishida nuqsonli bo'lgan bolalar tarbiyalanadi.

Bugungi kunda viloyatda uchta - Samarqand shahridagi 60-, 78- hamda Kattaqo'rg'on shahridagi 10-sonli davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lib, ular rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 7 yoshli 327 nafar bola tarbiyalanmoqda.

Ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom va xavfsiz o'qatirish borasida 12 soatlik ish tartibida 4 mahal, 24 soatlik guruhlarda esa 5 mahal o'qatirish tizimi joriy etilgan.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarni qabul qilish bo'yicha doimiy faoliyat olib boruvchi tibbiy psixologik-pedagogik komissiya tashkil etilgan.

Ushbu komissiya tomonidan har oyning oxirgi chorshanba kuni o'tkaziladigan tibbiy ko'rik xulosasi asosida davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalar qabul qilinadi.

2023-yilning birinchi choragida ixtisoslashtirilgan bog'chalariga ota-onalardan 87 nafar farzandlarini qabul qilish uchun arizalar kelib tushgan bo'lib, tibbiy tashxis xulosalari asosida 84 nafar bola qabul qilingan.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati.



ILMIY-AMALIY ANJUMAN O'TKAZILADI

Ta'lim tizimida yaratilayotgan keng imkoniyatlar natijasi o'laroq, bugungi kunda o'zbek tilshunosligida erishilayotgan yutuqlarni jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda.

Jumladan, o'zbek tilining "Davlat tili" maqomini olishi ona tilimizning izchil taraqqiy etishida mustahkam poydevor bo'ldi. Tilga bo'lgan e'tibor natijasida tilshunoslik va adabiyotshunoslikning barcha tarmoqlarida yirik ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi "2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbiqlar bo'yicha ta'limni tasdiqlash to'g'risida"gi 118-sonli buyrug'ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Samarqand davlat chet tillar institutida 18-may kuni "Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur anjuman tillararo aloqalarni mustahkamlash, milliy til qonuniyatlarini aniqlash, adabiyotshunoslikdagi muhim o'zgarishlarni tadqiq va talqin etishga qaratilgan bilan ham qimmatlidir. Anjuman doirasida yalpi majlis va quyidagi shu'balari ish rejalashtirilgan:

- sistem va struktur tilshunoslik muammolari;
- til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari;
- kognitiv, pragmatik tilshunoslik masalalari;
- zamonaviy tilshunoslikda matn nazariyasi

va ta'lim uslubiyati masalalari;
- til va adabiyot nazariyasi.
Mazkur shu'balarda zamonaviy tilshunoslik va uning yo'nalishlaridagi muammolar muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Ma'lumki, til tizimi va lisoniy faoliyatni har tomonlama tadqiq qilish, ularga xos hodisalarni batafsil yoritish uchun tilshunoslikning turli sohalarini biriktirish, ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan tayanch nuqtalarni topish muhim.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda lisoniy hodisalarni tilshunoslik va boshqa ilmiy sohalar bilan birgalikda tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, bu til birliklarini chegaralangan bir sathda emas, balki yetarli darajada chuqurroq o'rganishga, ilmiy bilimlarni yanada boyitishga imkon beradi. Mana shu kabi yondashuvlar natijasida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha yo'nalishlar, jumladan, derivatsiya, psixolingvistik, etnopsixolingvistik, sotsiolingvistik kabi yangi ilmiy sohalar vujudga keldi. Bu sohalar zamonaviy tilshunoslikning taraqqiyoti uchun, uning kelajakdagi rivoji uchun asosdir.

Rejalashtirilayotgan anjumanda nafaqat respublikamiz, balki Yaponiya, Germaniya, Rossiya kabi bir qator xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan olimlarning chiqishlari ham kutilmoqda.

Shahnoza TURNIYOZOVA, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori.

Bu dunyoda insondan faqat yaxshi nom va ezgu amallar qoladi. Muhtojlardan yordamini ayamagan fidoyi insonlarning nomini doimo hurmat bilan tilga olamiz. Savdo sohasi ustasi, Bahrom Mamarajabov ana shunday go'zal fazilatlarini bilan el mehrini qozongan edi.

Muhtojlardan yordamini ayamasi

Bahrom Mamarajabov 1933-yilda Jizzax viloyati Baxmal tumanining Baxmal qishlog'ida tug'ilgan. O'quvchilik paytlaridanoq matematika, fizika, kimyo, fanlarni yaxshi o'zlashtirib bordi. Maktabni tugatgach, o'qituvchi yetishmasligi sababli bir yil davomida Merganto'pi va Tangatopdi qishloqlariga qatnab, o'quvchilarga dars berdi.

Urushning og'ir yillari qishlog'imizda barcha erkaklar frontga ketganligi sababli qishloq xo'jalik ishlari ayollar va yosh bolalarga qolgan edi, deb eslardir Bahrom Mamarajabov. Ularning qo'sh haydaganlari, ketmon bilan g'alla, makkajo'xori ekkanlarini yaxshi eslayman. Biz esa o'rigan bug'doylarni ho'kiz qo'shilgan chig'onaga

ortib, xirmonga olib borardik. So'ngra g'alvirda elab, tozalab, qoplarga solib, eshaklarga ortib, 20-25 kilometr uzoqlikdagi Nushkent g'alla punktiga topshirib kelardik.

B.Mamarajabov 1951-yilda Samarqand kooperativ, hozirgi Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga o'qishga kirdi. O'qishni tugatib, sobiq Qoraqishloq rayon matlubot jamiyatida bosh hisobchi o'rinbosari bo'lib ish boshladi. So'ngra Bulung'ur tumanlari birlashib, yangi Bulung'ur tumani tashkil etilganida tuman matlubot uyushmasi raisi o'rinbosari, raisi bo'lib ishladi. Bahrom aka tug'ma tashkilotchi emasmi, yangi tuzilgan tashkilotning rivojiga katta hissa qo'shdi.

Hayotning chig'irliqlaridan o'tib toblangan yosh muta-



xassis turli vazifalarda ishlab, tajriba orttirdi, o'ziga ishonib topshirilgan tashkilotlarining yuksalishiga katta hissa qo'shdi. Uning rahbarligida Kildon ishchilar kooperatsiyasi barcha sohalarida viloyatdagi ilg'or savdo tashkilotlari qatoridan joy oldi.

B.Mamarajabov 1964-yilda Jomboy, G'allaorol, Baxmal tumanlari birlashib, yangi Bulung'ur tumani tashkil etilganida tuman matlubot uyushmasi raisi o'rinbosari, raisi bo'lib ishladi. Bahrom aka tug'ma tashkilotchi emasmi, yangi tuzilgan tashkilotning rivojiga katta hissa qo'shdi. 1969-yildan boshlab qariyb o'n yil davomida Samarqand

Xotira

viloyati matlubot uyushmasi raisiga o'rinbosarlik qildi.

Viloyat rahbarlari 1978-yilda uni chekka-chekka qishloqlarda ham magazin va ko'chma do'konlar tashkil etib, aholini zarur oziq-ovqat va maishiy ehtiyoj mollari bilan ta'minlash maqsadida Nurobod tumani matlubot jamiyatiga rahbar qilib jo'natishdi. So'ngra ikki yil viloyat Xalq banki boshlig'i bo'lib ishladi. 1983-yildan nafaqaga chiqqunicha Bulung'ur tumani matlubot uyushmasi raisi bo'lib xizmat qildi.

Bahrom bobo Mamarajabov hayot bo'lganida bugun 90 yoshni qarshilagan bo'lardi. Afsuski, u 2021-yilda vafot etdi. Bobo turmush o'rtog'i Mahkamtosh momo bilan 4 o'g'il va 1 qizni oliy ma'lumotli qilib voyaga yetkazgan. Bugungi kunda ularning 14 nevara, 23 chevara, 13 evaralari bor. Farzandlari bugungi kunda xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlab, yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Qahramon AZIMOV, Samarqand shahar Masjidi Qo'ng'iroqkor mahallasi raisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiyashtirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-168-son qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

Table with 9 columns: T/p, Obyekt nomi, Balansda saqlovchi tashkilot nomi, Joylashgan manzili, Umumiy yer maydoni (ga.), Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.), Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm), Savdo sanasi, Ariza berishning oxirgi muddati

Auksionda qatnashish tartibi to'g'risida: Ushbu obyektlarni "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish markazi" DUKning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazi yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish: Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auk-

sion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchilardan elektron raqamli imzo bilan imzolagan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan mud-

datda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni: Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiriladi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxda bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar, taklif berilgandan keyin 10 daqiqada davomida auksion ishtirokchilaridan

bi ri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar, tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqada davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonnomani avtomatik tarzda shakllantirgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi. Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini ishtirok-

chilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolar qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil: Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlari muvofiqlashtirish bo'limi.

Ma'lumot uchun telefonlar: 66-233-96-64, 99-447-17-70

Faks: 66-233-73-54

"Facebook"dagi rasmiy sahifa: Sam Dav Aktiv

Web-sahifa: privatization.davaktiv.uz Internet tarmog'idagi veb-sayt: samarqand@davaktiv.uz

TANLOVDA QATNASHING!

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti quyidagi kafedralar bo'yicha bo'sh lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

- I. Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti bo'yicha: 1. "Rus tilini o'qitish metodikasi" kafedrasidir; 2. "Xorijiy tillar" kafedrasidir; 3. "O'zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasidir. II. Aniq-tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti bo'yicha: 1. "Aniq fanlar" kafedrasidir; 2. "Tabiiy fanlar" kafedrasidir; 3. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" kafedrasidir; 4. "Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrasidir.

- III. Pedagogika fakulteti bo'yicha: 1. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasidir; 2. "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasidir; 3. "Pedagogika" kafedrasidir. IV. Maktabgacha ta'lim fakulteti bo'yicha: 1. "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasidir; 2. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasidir. V. San'atshunoslik fakulteti bo'yicha: 1. "Musiqqa ta'lim" kafedrasidir; 2. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasidir;

3. "Umumtexnika fanlari va texnologiya" kafedrasidir.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo'yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlarning nusxalari;
- ilmiy unvoni haqidagi attestat nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlari ro'yxati;
- mutaxassislik bo'yicha malaka oshirgan sertifikat nusxasi;
- Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nusxasi (mavjud bo'lsa).

Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida quyidagi manzilda qabul qilinadi:

Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 166-uy.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Djurayev Turakulga (2018-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Sadiyev Baxron Asrorovichga (2022-yil 1-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Ruziyev Akbar Tolibovichga (2022-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Rasulov Habibga (2006-yil 27-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Kuvondinova Fazilat Isaqulovna (2022-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Xolmatov Rustam Abdullayevich (2022-yil 27-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Berdiyev Xusniddin Isayevichga (2022-yil 25-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Abdumurotov Xamroqulga (2018-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Jurayev Shaxobidding (2020-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Muminkulovich notarial idorasida marhum Marupov Voxid Xalikovichga (2020-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Muminkulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

BEKOR QILINADI Samarqand shahridagi "SAMARQAND PLAZA" xususiy korxonasining (STIR: 300018284) ta'sis hujjatlari va 14:16:01:15:01:0064, 14:16:01:15:01:0081, 14:16:01:15:01:0079, 14:16:01:15:01:0084, 14:16:03:01:13:0021 raqamli kadastr hujjatlari yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Boltayev Ulmasga tegishli Samarqand shahri Motrid qo'rg'oni, Qumsoy ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan obyektning 14:16:01:01:11:0687 va 14:16:01:01:11:0382 raqamli kadastr hujjatlari yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "SAMARKAND INVEST STROY SERVIS TORG" o'liy korxonasining (STIR: 200794090) ta'sis hujjatlari va 14:16:01:01:05:0659 raqamli kadastr hujjati yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Farida ZIYAMUHAMEDOVA

Samarqand jamoatchiligi og'ir judolikka uchradi. Shafqatsiz o'lim ajoyib inson va mohir tashkilotchi Farida Fayzullayeva Ziyamuhamedovani oramizdan olib ketdi. F.Ziyamuhamedova 1940-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. O'rta maktabni tugatgandan so'ng qurilish ishlari va texnikaga bo'lgan qiziqishi uni Toshkent davlat politexnika instituti sari yetakladi. Besh yil davomida oliy darjahoning qurilish fakultetida tahsil oldi va 1962-yilda muvaffaqiyatli tamomlandi.

F.Ziyamuhamedova institutni tugatgach, shu oliy o'quv yurtini bitirgan kattaqo'rg'onlik Inatulla Xudoyqulov bilan turmush qurdi va uning keyingi hayoti Samarqand bilan bog'landi. 1962-yildan Kattaqo'rg'on shahridagi suvsozlik idorasida katta muhandis lavozimida ish boshladi. Bu tajribalarni hayotga tatbiq etishda faol bo'ldi. Mahallada xotin-qizlar



faoliyatiga, oilada farzandlar va nevaralar tarbiyasiga bosh-qosh bo'ldi.

I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni va ko'plab mukofotlar sohibi, mehribon ona, ustoz va murabbiy, mohir tashkilotchi va jamoat arbobi F.Ziyamuhamedovaning yorqin xotirasi qalbmizda bir umrga saqlanib qoladi. Ustozning ruhi shod, oxirati obod bo'lsin.

VILOYAT "NURONIY" JAMG'ARMASI.

TOPGANGA MUKOFOTI

Marhum Jurayev Shaxobidding qarashli davlat raqami 30 P 836 OA bo'lgan "NEXIA DONC GBASPG" rusumli avtotransport vositasining AAF 2098943 raqamli texnik pasporti Payariq tumani hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz. Telefon: +99894-666-68-94.

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

Samarqand shahridagi "Marmar dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2023-yil 15-iyun kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida bo'lib o'tadi.

KUN TARTIBIDA: - jamiyat raising 2022-yil yakunlari bo'yicha hisoboti; - jamiyatning 2023-yilgi biznes-rejasini tasdiqlash; - boshqa masalalar. Yig'ilishga barcha ta'sischilarni taklif etamiz. Manzil: Samarqand shahri Shohrux ko'chasi, 33-uy. "Marmar dehqon bozori" MCHJ binosi. JAMIYAT MA'MURIYATI.

SAMARQANDGA BORSAM HAR SAFAR...

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

"URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI



2 Quruq qoshiq og'iz yirtadi. Quruq gap quloqqa yoqmaydi. "Urgut" erkin iqtisodiy zonasidagi ishlar quloqqa yoqayptigina emas, qoshiq'u qozonlarni moyga, dasturxonlarni noz-ne'matlariga, dillarni iftixor tuyg'ulariga to'ldiryapti. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar shu qadar ko'pki, sanab, sanog'iga yetolmaysiz. Uyog'ini so'rasangiz, "Erkin iqtisodiy zona" degan gap bundan 5-6 yil avval biror odamning tushiga ham kirmagan edi. Ilk bor Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan iste'molga kiritildi shukhuli bu ibora. 2017-yil 12-yanvarda davlatimiz rahbarining Urgut haqidagi maxsus farmoni qabul qilindi-yu, tom ma'noda yangi davr, yangi hayot boshlanib ketdi qadim Urgut zaminida. Shu o'rinda, kimdir bilib, kimdir bilmaydigan bir raqamni eslatay: Urgut mamlakatimiz qishloq tumanlari ichida nufuzi balandligi jihatidan karvonboshi hisoblanadi - aholisi 600 mingga yaqin. 600 ming! Bu qariyb butun boshli ayrim viloyat aholisiga teng, deganidir. Yer maydoni esa do'ppi-daygina. Shuniyam yarmi tog'-u, yarmi toshloq. Osonmi bunday sharoitda 600 ming jonning tirikchilik qilmog'i? Ammo mehnat qancha og'ir bo'lsa, keti shuncha shirin bo'ladi; mehnat ham egiz-egiz, davlat ham egiz-egiz; mehnat qilsang, yasharsan, katta-katta osharsan, deyimish sharqona hikmatlar qanchalar mukammal ekanini ko'rmoqchi bo'lsangiz Urgutga boring. Ishning ko'zini topgan, mehnatda toblangan, mehnatda sinalgan, mehnat bilan toshda gul undirayotgan odamlarni ko'rasiz, ko'rib, hayratlarga ko'milasiz. Mehnat, mehnatning tagi - rohat ekaniga imon keltirasiz. Mehnatsiz baxt kelmasligi-yu, mehnat qilgan odamlarning tog'dek ko'krak kerib yurishlariga dil-dildan havasigingiz keladi. Ilo, Prezident farmoniga binoan, qishloq joylarda sanoatni rivojlantirish, ish o'rinarini ko'paytirish maqsadida tashkil etilgan iqtisodiy zona, mard va tanti odamlarning ahillik bilan, sidqididan qilgan harakatlari tufayli hayal o'tmay, ko'rku jamolini ko'z-ko'z qila boshladi.

3 Bugun faqat Urgutda emas, Samarqand zaminining hamma qishlog'u kentlarida bir-biridan obod manzil, makonlar ko'paygandan-ko'payib boryaptiki, bunga yer guvoh, osmon guvoh. Suluv manzaralarni ko'rmoq uchun Zarafshon daryosining Ravotko'ja ko'prigi orqali Urgutdan shundoq Bulung'ur yoki Jomboyga o'tib, atrofga bir tavajjuh etmoq kifoya. Jomboy zavodidan chiqayotgan avtomobillar, Bulung'ur tumanida yetishtirilayotgan meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlari hamda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash yo'lga qo'yilgani yoki atigi uch yilda qad rostlagan "Boqiy shahar"! Qarab to'yimsiz, boqiy yayraysiz, ta'zimlar qilingingiz keladi bunday mahobatli majmua yaratuvchisi bo'lgan iste'dod sohibi va qo'li gul bunyodkorlarga. Qiyosi yo'q bu majmua ijodkori ham davlatimiz rahbari ekani barchaga ma'lum. 2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqand tumaniga qarashli eshkak eshish kanali bo'yidagi 212 gektar maydonda majmua qurishga kirishildi. Ulkan majmua pandemiyadagi qiyinchiliklarga qaramay, qisqa vaqtda qurib bitkazildi. Ko'p tarqoqli mazkur markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, kongress-xoll, "Boqiy shahar", amfiteatr va yana ko'plab boshqa inshootlar bor. U yilga 2 million turistga xizmat ko'rsatishi mumkin. Majmuaning qadimiy bozor qismida mamlakatimizning barcha hududlariga xos 40 ta hunarmandchilik ustaxonalari qurilgan. Bu ustaxonalarga kelgan sayyohlar butun O'zbekiston bo'yab sayohat qilgandek bo'ladi. Yog'och o'yimakorlik ustalari, kulollar, zargarlar, gilam to'quvchilarning ish jarayonlarini ko'rib, hayratga tushadi. Yangi turizm markazi bo'lmish "Boqiy shahar"dagi kongress-xoll, zamonaviy mehmonxonalar allaqachon yirik xalqaro anjumanlar o'tadigan manzilga aylandi. Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar rahbarlari urachshuvi, yaqinda o'tadigan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilari kengashining 32-yillik ijumani, Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi... Kelgusi yillarda Samarqandga keladigan xorijiy sayyohlar sonini 1,5 millonga, mamlakatimizga keladiganlar sonini esa shu yilning o'zidayoq 10 millonga yetkazish ko'zda tutilgan. Bunday ulug'vor maqsadlarga erishishda ham majmua ahliining beqiyos o'rni bo'ladi. Endi, 1967-yilda qurilgan Samarqand aeroportidan bundan 5-6 yil burun qanchalar ko'rimiz ahvolda bo'lganini eslaylik. Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasidan so'ng ushbu "havo darvozasi" alloma bobomiz Mirzo Ulug'bekning "Zij jadihi ko'ragoniy" kitobi shaklida butunlay boshqatdan modernizatsiya qilindi. Loyiha doirasida eni 175, balandligi 25 metrli yangi terminal, uchish-qo'nish yo'lga, turargoh va boshqa obyektlar barpo etildi. Ilgari 400 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatgan aeroport endi 1000 nafar kishiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'ldi. Turli hajmdagi samolyotlar uchun 20 dan ortiq turargoh barpo etildi. Qariyb 1000 kishi ish bilan ta'minlandi. Yer yuzining sayqali bo'lgan qadimiy Samarqand husniga hush bo'lgan manzillardan yana biri Qorasuv mavzesidir. Ta'kidlash kerakki, 2018-yilga qadar Samarqandda 12 qavatdan yuqori binolar qurilmagan edi. 2019-yili xuddi shu massivda bo'y ko'rsata boshladi 14-16 qavatli uylar. 2019-yilning o'zida "Agromir Buildings" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 47 ta turarjoy qurildi. 3 ming 588 ta xonadon uy-joyli bo'ldi. Bu uylarning boshqalardan ustun tomonlari ham ko'p. Ularning fasadi uch qavatli qoplamadan iborat bo'lgani uchun bu xonalar qishda issiq, yozda salqin bo'ladi. Binolarga videokuzatuv tizimi, yuqori texnologiyali yong'in xavfsizligi uskunalar o'rnatilgan. Har bir xonadon alohida isitish qozoni bilan jihozlangan. Uylar 9 balli zilzilaga chidamli. Bugunga kelib, mazkur mavzeda qurilgan ko'p qavatli uylar soni yuzdan oshib ketdi. Ular orasida 25 qavatli imoratlar, maktablar, bolalar bog'chasi, mahalla fuqarolar yig'ini binosi, savdo do'konlari, o'yin va sport maydonchalari bor.

Endi ayrim raqamlarga murojaat qilamiz. To'g'ri, raqamlar gohida zerikarli tuyuladi. Vaholanki, raqam - bu g'arq pishgan shig'il-shig'il mevalari ko'zni qamashtiruvchi mevazor bog'. Raqamlar timsolidagi mo'l hosil, mevalar lazzi dillarni yayrataladi. Masalan, ikki-uch yil orasida "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida qiymati 402 million dollardan ziyod 84 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgani; 313 million dollarkil 55 ta loyiha bo'yicha ishlab chiqarish boshlangani; 4,5 mingdan ziyod kishi ish bilan ta'minlangani kabi shoyon voqealar shavqini raqamlarsiz ifodalab bo'ladimi? Yoki bu yerda tashkil etilgan korxonalar tomonidan gaz plitalari, yengil sanoat va charm-poyabzal tovarlari, gilamlar, gigiyena vositalari, elektr texnikasi buyumlari singari 220 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani-yu, faqat 2020-yilning o'zida 1,2 trillion so'mlik mahsulot tayyorlanib, 30 million dollarlik eksport qilingani-chi? Yuqorida yutuqlar "tap" etib osmondan tushmasligini tilga oldik. Xo'sh, unda... Undami? Arpasiz ot dovon osholmaydi. Agar davlatimiz rahbari tadbirkorlikni rivojlantirish va soha vakillarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan muhim tashabbuslarni iste'molga kiritmaganida edi, ehtimol, yuqoridagi raqamlar dunyoga kelmagan bo'lardi. Mazkur tashabbuslar bois dastavval, korxonalar yillik aylanmasi bo'yicha toifalarga ajratildi. Ya'ni, 1 milliard so'mgacha bo'lgani - mikro biznes, 10 milliard so'mgacha bo'lgani - kichik biznes, 100 milliard so'mgacha bo'lgani o'rta biznes toifasiga kiritildi. 2023-yildan boshlab mikro biznes uchun ayatlanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizdan 25 foizgacha bo'lgan stavkalari o'rniga yagona 4 foizlik soliq stavkasi joriy etildi. Bu - aylanmasi 1 milliard so'mdan oshib, umumiy soliq to'lash tartibiga o'tgan korxonalar yil davomida foyda solig'ini 2 barobar kam to'laydi, degani edi. Yana bir muhim yangilik - 2023-yildan boshlab kichikdan o'rta biznesga o'tgan korxonalar ikki yil davomida foyda solig'ining 50 foizini to'laydigan bo'ldi. Qo'shimcha qiymat solig'i stavkasi 12 foizga tushirildi. Mamlakat iqtisodiyoti barqarorligiga, yangi-yangi ish o'rinarini yaratilishiga xizmat qiluvchi bunday omillar tadbirkorlarga imkoniyatlar eshiklarini yanayam kattaroq ochib yubordi. Bog' jamoli - bog'bondan, g'ozlar yo'lboshchisiz uchmaydi, deganlari shu emasmi? El og'asi elni o'ylaydi, elga suyanadi, elim deydi, el kuchi - sel kuchi, deydi. Tunu kun elim, xalqim, Vatanim deb kuyungan Prezident Samarqandga qilgan tashriflari chog'ida qayta-qayta Urgutda bo'ldi. Erkin iqtisodiy zonada bajarilayotgan ishlarni tahlil qildi, tavsiyalar berdi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi. Hududdagi "Kamalak Tekstil" korxonasi borganidan so'ng, tuman kelajagiga doir o'nlab yangi loyihalarni amalga oshirish ishlari qizib ketdi. Mergancha massivida joylashgan ushbu shirkat gilam va tafting, kovrolin mahsulotlari, sintetik ip va sun'iy chim ishlab chiqaradi. O'sha kunlari iqtisodiy zonada qiymati 90 million dollarlik 29 ta loyiha bo'yicha qurilish-montaj ishlari olib borilayotgan, bu loyihalar ishga tushgach, 2 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan edi. Tashrif natijasida yana qiymati 144 million dollarlik 21 ta qo'shimcha loyiha shakllantirilib, 206 million dollarlik 33 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish yu-mushlari boshlab yuborildi.

4 Ha, shoirana tashbeh bilan ifodalaganda, Samarqandda "chappar urib gullagan bog'lar" kun sayin, soat sayin ko'payib bormoqda. Hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy majmuasining tamomila yangitdan bunyod etilayotgani, bu yerda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabining tashkil etilgani, Hazrati Xizir majmuasida qurilgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov maqbarasi, Universitet xiyobonidagi Konfutsiy maydoni, shahar ko'chalarini obod qilib turgan ko'priklar, tunnellar, mehmonxonalar, biznes markazlari, tumanlarda Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Germaniya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar... Samarqand jamolini mufassalroq idrok etmoq uchun yana ayrim raqamlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Diqqat qiling, o'tgan yili viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 5,8 foizga o'sib, 52,9 trillion so'mga yetdi. Aholi jon boshiga hisoblaganda bu ko'rsatkich 1,9 million so'mga ko'paydi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9 foizga; qishloq xo'jalik mahsulotlari 19,4 foizga; qurilish-pudrat ishlari 10,1 foizga o'sdi. 49 ta qo'shma korxonaga tashkil etildi. 373,8 kilometr umumfoyalangan yo'l, 2343,1 kilometr ichki, jami 2716,9 kilometr avtomobil yo'llari ta'mirlandi. Bular 2022-yilgi yutuqlarga mansub raqamlarning ayrimlari, xolos. Raqamlar esa o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Yuzlab, minglab mehnatkash odamlarning peshona teri, qalb qo'ri bor ularning jismi-jonida. Hatto millatning, mamlakatning quvvayu hofizasini - buguniyu ertasini raqamlarsiz tasavvur qilish qiyin. O'ylab-o'ylab yo'yak olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan, ot mingsan, olisni ko'zla, deydishadi shuning uchun ham mashoyixlar. Viloyat mehnatkashlarining bu yilgi marralari yanayam baland. Ular yalpi hududiy mahsulot hajmini 52,9 trillion so'mdan 62,4 trillion so'mga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 22,8 trilliondan 29,4 trillion so'mga, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni 14,4 trilliondan 18,4 trillion so'mga, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 40,3 trillion so'mdan 43,9 trillion so'mga ko'paytirishga bel bog'lagan. Oltin zinapoyalardan faqat yuksaklarga qarab talpinayotgan Samarqand xalqining irodasi, vatanparparligi, kattayu kichikning "Ipmi ipga qo'shsang, argon bo'ladi", deya birdamlikda intilishi, dorilamon kunlarga ishonchining ifodasi bo'lmish bunday yutuqlar qalbgacha o'zgacha g'urur, kuch-quvvat bag'ishlaydi, albatta. Va shukurlik qilamizki, dasturxonimiz noz-ne'matlariga to'lib boryapti, jahonning ilg'or mamlakatlariga bo'yilish boryapimiz. Qancha-qancha tushib va javobsiz muammolarning yechimi topilyapti. Ishsizlar ishli, uysizlar uyli bo'lyapti. Ammo dunyo notinch. Dunyo bezovta. Dunyo si-mohiddat qalqib turibdi. Siyosiy iqlim aql bovar qilmas shiddat izmida etagini tutqazmayapti. Bundan ming-ming yillar avvalgi dahshatlarni esga soluvchi vahm-chor voqealardan, hatto samoviy sayyoralar ham o'z o'qi atrofidan chiqib ketguday tashvishda. Ur-surlar bo'ronida, erta tugul, sanoqliq daq'qalardan keyin nimalar bo'lishi tashavvurga sig'maydi. O'ylamay qo'yilgan bir qadam yoki bilib-bilmay aytilgan bir so'z tubsiz jarga qalqitishi mumkin. Bugun nafaqat mamlakatlar va siyosatlar o'rtasida, balki yaxshilik bilan yomonlik, halollik bilan harom, sadoqat bilan xoinlik, to'g'rilik bilan yolg'on kabi xislatlari illatlar o'rtasida ham beshafqat janglar ketyaptiki, bunday hayot-mamot kurashlari kishini har nafasda hushyor turishga da'vat etadi. Yanayam achinarlisi, oramizda ulug' maqsadlar-ga yetishni xuddi suvda eriydigan shakardek yengil tasavvur qiladigan betoqatlar, do'ppi bersang, sallani, salla bersang, do'ppini talab qiluvchi boqi-mandalar ham bor. Ularni ko'rganda, ey, birodari azizlar, odam deganda jilla qursa, birozgina harakat, birozgina tashnaliq, birozgina hayajon, birozgina ishtiyiq, birozgina fidoyilik, birozgina tafakkur, birozgina shukronalik bo'lishi ham kerak-ku, deydishdan tiyolmay qolasan o'zingni. Tiyolmaysan-da, kechagina maoshini ololmay, banklar eshigidagi sarg'ayib o'tirgan, bir uvat naridagi qo'shni davlatga chiqolmay devona bo'lgan, eshikma-eshik ish axtarib, topolmay, yashashga hafsalasi qolmagan ayrim kishilarning mana shunaqa no-shukurligini ko'rib turganingdan keyin. Behalovlat kunlarda biz yuradigan ko'cha bitta. Davlat rahbari bu yo'lni aniq qilib aytganlar: "Bir tanu bir jon bo'lib harakat qilsak, men ishonaman, el-yurtimiz intilayotgan Yangi O'zbekistonni, albatta, barchamiz birgalikda bunyod etamiz". Birgalikda Yangi O'zbekistonni bunyod etish ishtiyog'i ayni damlarda mamlakatimizning barcha qishlog'u shaharlarida, yoshu qari - hammaning qalbida Zarafshon daryosidek shiddat bilan jo'sh urmoqda. Samarqandda bo'lganlar bu qudratli to'liqni ko'zi bilan ko'radi, qalbi bilan idrok etadi. Samarqandliklarning "Sheriklashib ishlaganning yurag sherday bo'ladi", degan qadimiy hikmatni o'zlariga shior qilib, totuvlikda tillashib, qo'llashib, bellashib, birlashib, ittifoqlashib mehnat qilayotganidan ruhi to'g'ay duklayotgan va shoirlikdan bexabarlar ham beixiyor: Samarqandga borsam har safar, Kutib olar qutlug' zafarlar! - deya she'r to'qib yuborganini sezmay qoladi. Abdusaid KO'CHIMOV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Birgina shu misolning o'ziyoq qator savollarga sabab bo'ladi: xo'sh, qayoqdan paydo bo'lyapti bunday musaffo evrilishlar? Necha-necha yillar mobaynida tizza bo'yi chang, loyga belanib yotgan ilon o'tmas ko'chalar qanday qilib bunchalar tez obod bo'ldi, tekislandi, asfaltlandi, chiroy ochdi? Bo'sag'asiga qadam qo'ysang, boshing "taq" etib eshik peshtoqiga uriladigan yetim uylar o'rnida qanday qilib serqavat imoratlar qurildi? "Tap" etib tushmangandir osmondan, axir? Yo yerdan chiqdimi qo'ziqorinday? Turnaday tizilgan 9-12 qavatli binolarga bir qarang! 5-6 yil avval daydi shamol shuvoqlarni koptokday dumalatib yurgan Urgut dashtlarida bunaqa koshonalar quriladi desang, ishonarmidi inson bolasi?

Endi-mi? Endi "Mahallada duv-duv gap" kinosidagidek farishtachehra momolarimiz baland uylar peshayvonida yelpinib o'tirishibdi surayyo xayollar og'ushida hukumatga duolar aytib.

Gap Urgutdan boshlangan ekan, keling, tuman qiyofasiga doir ayrim chizgilarga nigoh tashlaylik. Bundan bor-yo'g'i 30-35 yil burun bu makonda tamaki zavodidan bo'lak sanoatga doxil bittayam korxonaga yo'q edi. Uyam nomiga - tamakini chala-chulpa fermentatsiya qilardi, xolos. Tugma topsang, igna, igna topsang, tugma qidirarding.

Endi-mi? Aytсам, eidan ayrilgan ba'zi "og'a"lar, eh-he, Urgut jannatga aylanib ketgan ekan-u, bexabar qolibmiz-da, deya miyig'ida mug'ombirona iljayib, merovsirashlari mumkin. Noshukur deymizmi, bean-disha deymizmi, xudbin yoki ko'rolmovchi deymizmi, ishqilib, mazkur to'daga mansublar hamisha, hamma zamonlarda bo'lgan, bundan keyin ham yo'q bo'lib ketmaydi. Qolaversa, nufuzi 35-40 millionli mamlakatda ikki-uchta g'alamis, hasadchining bo'lishi ham tabiiy holdir. Bundan fojia yasash, yoxud tashvishga tushishga hojat yo'q. Dono bobolarimiz aytganlar-ku, har insonning do'stu dushmani, har o'lkaning gulu tikani bo'ladi, deb. Demak, yutuqlarindan boshi osmonlarga yetguvchi qadrdonlar qatorida alamzada, hasadgo'yilarning bo'lishi, bog'ingda ungan har gul ularning badaniga tikanday qadalishi ham yangilik emas. Munavvar yuksaklarga, ulug' maqomlarga erishayotganing uyqusini zaharlaydi; ichi kirilgini xaspo'shlash uchun boshqalarga joni achiydigan odam terisini yopinvolib, boshqalarning ichiga g'ulg'ula solishga intiladi unaqalar.

Nachora, xalq maqollarida bekordan-bekorga, "Yomon baliq suv loyqalatadi", "Yomon mo'ridan achchiq tutun chiqadi", deyilmagan. Vijdonsiz kimsadan o'pkalamaslik mumkin. Ammo yana bir haqiqat borki, iltuvullagan bilan tog' qulamaydi. Daryoni bir kesak bilan loyqalatish mumkin emas. Achinaman, rahmim keladi unday odamlarga.

Xullas, nonini yeb, dasturxonida tupurguvchi munofiqlarga Xudoyimdan insof so'rab, ular-ga bobokalonlarimizning "Tikan bo'lib oyoqqa qadalguncha, gul bo'lib ko'krakka sanchil", degan ibratli nasihatini eslatamiz-da, yana Urgutga qaytamiz.

To'g'ri, Urgut jannatga aylanib ketgani yo'q. Yechimini kutib turgan masalayu muammolar, yillar davomida to'planib qolgan kamchiliklar oz emas. Hozir gap so'nggi 5-6 yil haqida ketyapti, 50-60 yillar davomida so'lib-so'limay, quvvab-quvvolmay arosatda qolgan bog'larning so'nggi 5-6 yil orasida gullarga burkanayotgani, ko'chalar, hovlilar rayhonlar hidiga ko'milib borayotgani haqida ketyapti. Baland tomga sakrab emas, narvon bilan bitta-bittalab chiqish haqida ketyapti. Ishning ko'zini bilib, tirishqoqlik bilan qilingan mehnatning noni naqadar shirin va mazali bo'lishi, terga botganlarning zarga botishi haqida ketyapti. Urgutdagi rivojlanishlarning ildizi ham bitta - mehnat.

Ahillik bilan qilinayotgan halol mehnat tufayli yuksalish shitbolari bo'ron kabi shiddatli. Kimdir "lof" deydimi, "qof" deydimi, baribir aytaman, aytmasam bo'lmaydi - hozir tuman-da odamning jonidan bo'lagi ishlab chiqarilayapti. 5-6 yil ichida shunday bo'ldi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR
16-MAY Nuriddin SHUKUROV - (1930-1995) Samarqand tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.
18-MAY O'tkir NURULLAYEV - (1941-2016) Paxtachi tumanida tug'ilgan. Taniqli shoir.

MATBUOT UYI Zarafshon AMARKANDSKIY VESTNIK

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438, 17 666 nusxada chop etildi. Buyurtma 259. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonaga manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: S.MARDIYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.
Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009
Sotuvda narxi kelishilgan holda